

# BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGIDA INTEGRATSIYALASH JARAYONNING AHAMIYATI

Ochilov Navro‘zbek O‘roqboy o‘g‘li  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda jismoniy  
tarbiya kafedrasi talabasi. [navruz97ochil@gmail.com](mailto:navruz97ochil@gmail.com)

Shomirzayeva Nasiba Xoshimovna  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda jismoniy  
tarbiya kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik bilimlarini integratsiya jarayonning ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqa prinsiplarining ayrim jihatlari yoritilib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, o‘qituvchi, integratsiya, komponent, psixologik-pedagogik, prinsiplar, bilim, ko‘nikma, malaka.

**Аннотация:** В данной статье описаны некоторые аспекты принципов образовательного, междисциплинарного общения в процессе интеграции психологик-педагогических знаний будущих учителей физической культуры.

**Ключевые слова:** начальное образование, учитель, интеграция, компонент, психолого-педагогический, принципы, знание, умение, квалификация.

**Annotation:** This article describes some aspects of the principles of educational, interdisciplinary communication in the process of integrating the psychological and pedagogical knowledge of future physical education teachers.

**Key words:** primary education, teacher, integration, component, psychological and pedagogical, principles, knowledge, skill, qualification.

Yurtboshimiz bolalar sportini rivojlantirish mavzusiga alohida to‘xtalib, ta‘lim va tarbiya ishlarini sport va jismoniy tarbiya bilan uyg‘un ravishda olib borish shart ekanini takidlaganlar. Sport sog‘lig‘ni mustahkamlabgina qolmay, balki hayot sinovlaridan, turli ruxiy va mafkuraviy xujjatlardan mardonavor o‘tish yo‘lida mustahkam qalqon bo‘luvchi irodani ham toblaydi.

Bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib borsak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma‘naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilishi zarurdir.

Integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning ishlarida ko‘rib chiqilgan[2,3].

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir[1,2].

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib[5], qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama - qarshiliklar ko'p.

Zamonaviy jismoniy madaniyat o'qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang'ich ta'limning integrativ xarakterini, o'zining bo'lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo'nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgandagina bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi samarali bo'ladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik bilimlarini integratsiya jarayonning samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning metodlari:** Pedagogik kuzatishlar va nazorat testlari. Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlilini o'rganib chiqish amalga oshiriladi. Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalarini va psixologik - pedagogik integratsiyani maxsus prinsiplari ishlab chiqiladi.

**Natija va uning muxakomasi:** Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. «Integratsiya» so'zi lotincha integratio – tiklash, to'ldirish, «integer» - butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

- tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

- tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya fransuzcha - (différentiation lotincha differentia - farq, har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash - dunyo an'anasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi[3].

Ta'lim jarayonida integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, jismoniy tarbiya kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq.

Avvalam bor o'qituvchilarning amaliy texnologiya tayyorligi qanchalik chuqur

va ko'p qirrali bo'lmasin tayyorgarligi bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak. Shu vaqtda psixologik-pedagogik integratsiya tizimini to'g'ri tanlamoq lozim[4].

O'ylaymizki uchta har xil, lekin bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni metodologik, texnologik va shaxsiy integratsiyasi bor vaqtda psixologik-pedagogik bilimlarni o'rganish ancha oson, tez va produktiv bo'ladi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- birinchisi nazariy bilimlarga ega bo'lish va metodologik refleksiya tajribasini oshirish orqali;

- ikkinchi komponent metodik va texnologik darajadagi psixologik-pedagogik bilimlarni o'z ichiga oladi;

- uchinchi komponent funksiyasiga-pedagogning shaxsiy rivojlanishi, o'z-o'zligini shakllanishi kiradi.

Yuqoridagi komponentlar o'z ishlarida quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- bilim olish bo'lajak o'qituvchining kerakli hususiyatlarini va ish turlarini shakllantirishga qarab olinishi kerak.

- psixologik-pedagogik fanlar strukturasi bilimga ega bo'lish protsessidan ko'ra bilimga ehtiyojni oldinroq bo'lish sharoitlarini yaratib berishi kerak.

- bo'lajak o'qituvchining imkoniyat, xususiyat, forma va metodlarni birligini tajribada amalga oshirish sharoitlarini yaratib berishi kerak, shuningdek talabalarni egallagan tushunchalarini o'quv jarayonidan davolashda uzluksiz ishlatilishi va rivojlanish sharoitlarini yaratib berish kerak.

Psixologik-pedagogik tartibli integratsion jarayonni samaradorligi va tizimli, integrallashgan bilimni shakllanishi haqida to'liq ma'lumot olish uchun, quyidagi kuzatishlarni berilgan yo'nalishlar bo'yicha tashkillashtirish kerak:

- talabalarining bilimlarni o'zlashtirishga psixologik tayyorligini o'rganish;

- bilim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

- faktlar, xolatlar, konunlar haqidagi bilim doirasini aniqlash;

- pedagogik jarayon, o'qituvchilik mehnatiga motivatsion va emotsional munosabatini aniqlash.

Talabalarining kasb tanlashida bu indikator juda katta ahamiyatga ega. Bu indikator orqali bo'lajak o'qituvchini o'qitish va bilim berish jarayoniga munosabatini aniqlash mumkin. Psixologik-pedagogik tartibli o'qitishning integratsion jarayonni texnologik ta'minlanuvini analizi, o'qituvchini bilim berish metodlarini, usullari va formalarini to'liq aks ettirishga yordam beradi.

**Xulosa** qilib aytganimizda pedagogika oliy ta'lim muassasasining muhim masalalaridan biri bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga aqliy faoliyat usullari yordamida ta'lim berishdir. Aqliy faoliyat usullariga fikriy tasavvur va tafakkur usullarini umumlashtirish, mavhumlashtirish va boshqalar kiradi. Xususiyan umumiyga umumlashtirish usuli (induktiv yo'l bilan), masalan, quyidagi amallar tartibida aks etishi mumkin:

- a) topshirilgan predmetlarni solishtirish;

- b) ularning har biri uchun umumiy bo'lgan barcha belgilarni ajratish va nomini aytish;

v)predmetlarni ushbu belgilarga ko‘ra birlashtirish;

Umumlashtirishni didaktik yo‘l bilan amalga oshirilgan holatda (umumiydan xususiyga) bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tushunchani tanlab olishi va umumiy belgilarini aytishi lozim. Yangi topshiriqlarni hal etishga ongli ravishda ko‘chirib o‘tkazish aqliy faoliyat usulini o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichi bo‘lib hizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kalyagin L.L. Aleksinka O.L. “Integratsiya shkolnogo obucheniya” Nachalnaya shkola 1990 g. № 9.
2. Kukushin V.S. Boldireva A.V. “Pedagogika na’chalnogo obrazovaniya” “Mart” 2005g.
3. Mavlonova R.A. “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi” Metodik qo‘llanma Toshkent-2005y.
4. Shorustamova D.S. “Boshlang‘ich ta’lim darslarini integratsiyalashda pedagogik psixologik yondoshuv” Magstir akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. 2014y.
5. Yakibova D.Sh. “Boshlangich ta’limda integratsiya intellektual taraqqiyot omili sifatida” Maktab ta’limi jurnal.